

TA'LIM JARAYONIDA TALABALARGA TARIXIY TAHLILI VA MUSTAQIL FIKRLSH KO`NIKMALARINI TAKOMILLASHTRISH MEXANIZMI

Omonov Davronjon Sheraliyevich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo`qon filiali

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida talabalarga tarixiy tahlili va mustaqil fikrlsh ko`nikmalarini takomillashtirish mexanizmi, talabalarning jismoniy, ahloqiy jihatdan komillik darajasiga yengillik bilan erishishiga ko`maklashish haqida so`z yuritiladi

KALIT SO`ZLAR: Komil inson, ahloqiy va aqliy bosqichlar, fan va texnika taraqqiyoti, ma'naviyat va qadriyatlar, "quvvati fikriyya"

KIRISH

Fikr yuritishning mustaqilligi deganda, talabaning shaxsiy tashabbusi bilan uning o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va nazariy, xususiyatli faraz qilishi, kutilayotgan natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan muammoni hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo'l, usul, vosita topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish joiz. Fikr yuritishning mustaqilligi, aqlning sertashabbusligida, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda, talaba o'z oldiga yangi muammoni aniq maqsad, yaqqol vazifa qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda nihoyasiga yetkazishga, yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarni kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishi nazarda tutiladi. Talaba fikr yuritishning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'liq tarzda kechadi. Agar talaba tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyanomalar bildirilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday insonning fikr yuritishi sermahsul deyiladi. Talaba oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisalar mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqiqatidan umumiy ijtimoiy qonuniyat yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, talabaning mustaqil fikrlashi hali izlanmagan to'la foydalanilmagan imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni to'la ochish fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Har qanday tashkilot yangilik, taraqqiyot, inson aql-zakovatining mahsulidir, xuddi shu bois fan va texnika rivoji ko'p jihatdan mutaxassisning mustaqil fikrlashiga bog'liq. Talaba kamoloti jismoniy, ahloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo'lib, bu borada uning mustaqil fikrlashi



yetakchi, ustuvor o‘rin egallaydi. Hozirgi davrning talabalari jismoniy, ahloqiy jihatdan komillik darajasiga yengillik bilan erishsada, lekin aqliy kamolotga yetishishga esa asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo‘riqish, uzluksiz faollik, fidoiylik namunalari evaziga bosqichma- bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshishi mumkin. Komil inson bo‘lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo‘lg‘usi mutaxassis ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma‘naviyat va qadriyatlar egallash uchun hamda kelajak rivojini ta‘minlash uchun talabalarda mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Buyuk olim Abu Nasr Forobiy (873-950) aql orqali, tafakkur yordamida bilim olishning o‘ziga xos mustaqil izlanish va fikr yuritish xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. Uning asarlarida tafakkur mavjudlikka, umumiylikka, bivositalikka, ya‘ni sezgilari orqali bilish xususiyatiga ega, deb tushuntiriladi. Forobiy ta‘limotiga ko‘ra, tafakkur (aql) orqali inson materiyaning sezgilarga noma‘lum bo‘lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san‘at, fan tizimidagi bilimlarga ega bo‘ladi va inson mustaqil fikr yuritishga qodir bo‘ladi deb ta‘riflanadi.

Uning fikricha, aql quvvatining eng muhim vazifalarining biri, mantiqiy mustaqil fikr operatsiyalarni bajarishdir. Bu vazifa aql quvvatiga kiruvchi mustaqil “quvvati fikriyya” inson mantiqiy fikrlash jarayoni tomonidan amalga oshiriladi, ya‘ni agarda “quvvati natifiya” (quvvat natijasi) bilan anglashadigan narsani bilib olish zaruriyati tug‘ilsa, “quvvati fikriyya”(quvvat fikri) ishga kirishadi. Bu faoliyat fikr yurgizish, tushuncha va hukmlar yordami bilan amalga oshirilib, keyinchalik xulosalar chiqarish bilan yakunlanadi. Uni tafakkurga umumlashtirish va mavhumlashtirish, analiz va sintez qilish kabi xususiyatlari xosligi haqidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega. Alloma ta‘limotida tafakkurni konkretlikdan mavhumlikkacha yo‘nalishi va mavhumlikdan konkretlik sari qaytishi haqida faraziy fikrlar ham uchraydi. Forobiy “Aql to‘g‘risida”gi risolasida o‘zida 12 xislatni birlashtirgan kishigina ahloqiy odam bo‘ladi, deydi. “Ulardan beshinchisi – so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon bayon eta olsin” – kabi xislatdir. Aynan shu fikrlar buyuk ajdodimiz ham shaxsning mustaqil fikrlashi – uning muhim fazilati ekanligini ta‘kidlaganligini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Shunday qilib, Forobiyning mustaqil fikr yuritish, tafakkur xususiyatlari haqidagi fikrlari hozirgi davrga qadar o‘z ahamiyatini saqlaganki, hozirgi mustaqillik davrida yoshlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga nazariy asos bo‘ladi. Abu Rayhon Beruniy fikricha, inson bilish, tushunish, fikrlash, muhokama qilish, o‘ylab topish singari iste‘dodga egadir. Inson tafakkurini qudrati shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg‘ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshilikni yomondan, haqiqatni esa nohaqiqiylikdan ajratish mumkinligi haqida ta‘lim beradi. Beruniy bu narsa har

qanday fanning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. U bilishi lozim bo'lgan hodisa va voqeani maydalab bo'lib-bo'lib o'rganish, tahlil qilish metodikasini ilgari suradi.

ADABIYOTLAR

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'z MU. 2003. -66 b.
2. Saidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. –T.: XTV RTM, 1999. -55 b.
3. Haydarova O.Q. Oliy pedagogik ta'limga texnologik yondashuv asoslari. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2006.